

KO'P KOMPLEMENTLI QO'SHMA GAPLAR VA ULARNING ISHLATISH DOIRASI

Muhammadjonova Mavzuna

Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Arabboyeva Mahfuza

Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo'shma gaplarning uslublari yoritilgan. Qo'shma gaplar uni tashkil qilingan mahsulotlar zararli moddalarni aloqani ifodalaydi, shu tariqa real olamdagi ikki voqea-hodisa o'zaro aloqadorlikni, sabab-oqibat, maqsad, shart, to'siqsizlik, payt bir qancha aloqani aks ettiradi. Qo'shma gaplarning mazmunini to'g'ridan-to'g'ri to'g'ridan-to'g'ri ifodalash bilan, xima-xil ma'nodagi nozikliklari, uslubiy bo'yoq va tasviriy zaruriyatga qarab qo'yishning nutq va barcha uslublarda mahoratini anglatadi

Kalit so'zlar: Ko'p komponentli qo'shma gap, bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap, ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap, bog'lovchisiz tuzilgan tuzilgan murakkab qo'shma gap, aralash tipdagi murakkab qo'shma

Tilshunoslik fanida qo'shma gap mavzusi azaldan muammoli bo'lib keldi va bugungi kunda ham uni muammolardan xoli deb bo'lmaydi. Buning asosiy boisi shundaki, qo'shma gap fikr ifodasi sintaktik shaklining eng yuqori va murakkab pog'onalaridan birini tashkil etadi. Jahon tilshunosligida qo'shma gap talqiniga bag'ishlangan ilmiy-monografik tadqiqotlar ko'p bo'lishiga qaramay, bu sohada hali yechilmagan jumboqlar anchagina ko'rinadi. Ular jumlasiga qo'shma gap tarkibiy qismlarining nomlanishi, ularning tub strukturaga munosabati, tarkibiy qismlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi grammatik va ekstralingvistik omillarning funksional salmog'ini aniqlash, qo'shma gapning ustpredikativ belgisi, uning sintaktik derivatsiyasiga taalluqli muammolarni va, umuman, «qo'shma gap» terminining qo'llanilishi bilan bog'liq ko'plab munozarali masalalarni kiritish mumkin. Qo'shma gap komponentlarining munosabati turlarini o'rganish XX asrning yigirmanchi yillarida tilshunoslik fanida asosiy mavzulardan biri bo'ldi va bu sohada tilshunoslar o'rtasida ilmiy bahs va munozaralar boshlandi.

Qo'shma gaplar komponentlarning soniga ko'ra, ikki xil bo'ladi:

- 1) ikki komponentli qo'shma gaplar ;
- 2) ko'p komponentli qo'shma gaplar.

Ko'p komponentli (murakkab) qo'shma gaplar uch va undan ortiq komponentlarning mazmun va grammatik jihatdan birikishidan hosil bo'ladi. Murakkab qo'shma gap tarkibidagi qismlar (komponentlar) o'zaro turlicha munosabatda bo'ladi. Shunga ko'ra, murakkab qo'shma gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bog'langan qo'shma gap toifasidagi murakkab qo'shma gap.
2. Ergashgan qo'shma gap toifasidagi murakkab qo'shma gap.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap toifasidagi murakkab qo'shma gap.
4. Aralash tipdagi tuzilgan murakkab qo'shma gap.

1. Bog'langan qo'shma gap toifasidagi murakkab qo'shma gaplar

Bog'langan qo'shma gap toifasidagi murakkab qo'shma gap komponentlari o'zaro teng bog'lovchilar yoki teng bog'lovchilar vazifasidagi yuklamalar orqali sintaktik aloqaga kirishadi. Bunday murakkab qo'shma gap, tarkibidagi komponentlarning bog'lanish usullariga ko'ra, shuningdek, ularning semantik munosabatlariga ko'ra, bog'langan qo'shma gapdan farq qilmaydi, lekin bunda komponentlarsoni uch va undan ortiq bo'ladi. Masalan: Bugundan boshlab yotoq joylarda... yigitlardan bitta navbatchi qoldirildi-yu, boshqa hamma paxtaga chiqdi va terimchilar soni to'rt kishiga ortdi. (P.Qodirov).

Bo'lishsizlik-inkor bildirgan gaplar ham bog'lovchili qo'llaniladi. Bunda na bog'lovchisi ham o'z vazifasida, ham bog'lovchi vazifasida keladi: Mening nomimga g'alati bir konvert chiqdi: na familiyasi bor, na ismi va na pochta muhri (Asqad Muxtor). Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi

vositalar muhim grammatik va uslubiy vazifa bajaradi. Turli ma'no va uslubiy bo'yoq ifodalashda, sodda gaplarni chegaralashda, ayniqsa, ergash gapning nima maqsadda qo'llanilganligini ko'rsatishda bog'lovchilar muhim rol o'ynaydi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning imkoniyatlari bog'lovchili qurilmalarga qaraganda ancha chegaralangan bo'ladi. Bog'lovchisiz shakllangan qurilmalar mazmunan uzviy bog'liq bo'ladi. Ular shunday joylashadiki, bir gap ikkinchisin talab qiladi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar bosh gapi tarkibida ko'rsatish olmoshi bo'lgan qurilmalar shakllanadi: Maqsadim shu: yer yuzida tinchlik bo'lsin. Elda shunday naql bor: qari bilganni pari bilmas kabi. Antonim so'zlar yordamida gap mazmuni aniqlanadi: Yaxshi yeydi oshini-yomon yeydi boshini singari. Ayrim gaplarda bo'laklar takrorlanishi mumkin: Bunda bulbul kitob o'qiydi Bunda qurtlar ipak to'qiydi (H.Olimjon).

Umuman, bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tasviriylim, bo'yoq, jozibadorlik kuchli bo'ladi. Shu bois yengil o'qiladi. Ergash gapli qo'shma gaplar ham muhim uslubiy vazifalarni bajaradi. Gap mazmuniga aniqlik kiritadi, to'ldiradi, izohlaydi, ta'kidlaydi va hatto, o'rni bilan tasviriyl vosita sifatida qo'llaniladi. Badiiy va publististik nutqda nisbiy olmoshli qurilmalar ko'p uchraydi. Ergash gap shaxs, predmet, o'rin holat orasidagi munosabatni qiyoslash, ularga ma'lum darajada aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi: Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir (Bobur). O'zgalarning fikrini hech o'zgarishsiz ifodalash ko'chirma gap hisoblanadi. Ko'chirma gaplarda ham tugal fikr, his-tuyg'u ifodalanadi. Yozuvchi ba'zan ko'chirma gaplardan uslubiy maqsadlarda: personajlar xarakterini ochishda, ichki va tashqi dunyosini tasvirlashda foydalanadi. Ko'chirma gap muallif gapi bilan birga keladi.

Xullas, o'zbek tilshunosligida qo'shma gaplarning tasnifida 2 xil yondashuv kuzatiladi: an'anaviy yondashuv (formal tahlil), formal-funksional yondashuv. An'anaviy tahlil usulida qo'shma gap turlarini belgilashda gap tarkibiy qismlari orasidagi munosabatlar, bog'lovchi vositalar asosiy omil hisoblangan bo'lsa, formal-funksional tahlil usulida qo'shma gap tarkibida to'liq shakllangan sodda gaplarning o'zaro munosabati va bu sodda gaplarning qo'shma gapda voqelantirgan ma'nolari bilan nutqda mustaqil qo'llana olish-olmasligi e'tiborga olingan. Quyida o'quv dasturlariga asoslangan holda an'anaviy sintaktik nazariyalarda qayd etilgan qo'shma gap turlari haqida ma'lumot beramiz. Qayd etilganidek, an'anaviy sintaksisda qo'shma gaplar qismlarining miqdoriga ko'ra ikki komponentli va ko'p komponentli turlarga ajratiladi. Ikki komponentli qo'shma gaplar ikki sodda gapning mazmunan va grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topsa, ko'p komponentli qo'shma gaplar uch va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1976.
2. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – Москва: Восточная литература, 2001.
3. Турниёзов Б.Н. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. – Самарқанд, 2008.
4. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – Самарқанд, 2002.
5. Хайруллаев Х. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. – Самарқанд, 2008
6. Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – Москва, 1979.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili(darslik).-Toshkent: Universitet, 2006.
8. Гуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент : Ўқитувчи, 1987.
9. Кудратов Т. Нафасов Т. Лингвистик таҳлил: Синтактик таҳлил. – Тошкент : Ўқитувчи, 1981.